

AMIR TEMUR DAVRIDA ADABIYOT VA SAN'ATNING RIVOJLANISHI

Boboqulova Nasiba

Oriental universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya:

Amir Temur davrida yurtimiz xalqlari hayotida olamshumul buyuk yuksalish, ya'ni, "Ikkinchi renessans" jarayonlari ro'y bera boshlagani bilan shonli tariximizdan alohida o'rin oldi. Ushbu maqolada Amir Temur davrida adabiyot va san'at rivoji haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Movaraunnahr, ilm-fan, adabiyot, sa'nat, me'morchilik, hunarmandchilik.

Introduction

Mamlakatimiz tarixida, jumladan, madaniyat va san'at tarixida ham Amir Temur va temuriylar davri alohida ajralib turadi. Amir Temur o'zining buyuk ishlari, yaratuvchiligi, milliy davlatchilikni shakllantirishdagi, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishdagi xizmatlari bilan mamlakatimizni, millatimizni jahonga tanitgan tarixiy shaxsdir.

Sohibqiron davlatchilik falsafasi tarixida yangi dunyoqarashga asos soldi va uni amalga tadbqiq etdi. Jahon madaniyati va sivilizatsiyasida munosib o'rin egallagan "Temur va temuriylar davri madaniyati" deb nomlanadigan alohida davr mavjudki, bu uning keng qamrovli davlat arbobi, madaniyat, fan, adabiyot, tarix, san'at kabilar rivojlanishiga katta hissa qo'shganligidan dalolat berib turibdi. Amir Temur va temuriylar davrini mubolag'asiz nafaqat o'zbek xalqining, balki butun Yaqin va O'rta Sharq ellarining musiqa san'atlari uchun jadal ravnaq topgan, kamolot cho'qqisiga erishgan, chinakam uyg'onish davri bo'lgan, deyish mumkin. Movarounnahr va Xurosonda o'zbek tili, adabiyoti va madaniyatining mavqeyi orta bordi. Xurosondagi turkiyzabon xalqlar va ularning ziyolilari Samarqand, Buxoro, Turkiston va boshqa shaharlardagi olimlar shoirlar va san'atkorlar bilan o'zaro juda yaqin munosabatda bo'la boshladilar. Qaysi ijodkor o'ziga qaysi mamlakat yoki shaharni qulay deb bilsa, o'sha yerda yashab ijod qilganlar.

Temuriylar davrida O'rta Osiyoda maydonga kelgan buyuk sivilizatsiya buyuk tarixiy shaxslarni – faylasuf va donishmandlarni, shoir va san'atkorlarni, me'mor va sohibi hunarlarni yetishdirikim, ular o'z navbatida jahon madaniy taraqqiyotini boyitishga hissa qo'shganlar. Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, bu davrda Samarqand va Hirotda Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Amiriy, Javhariy, Mavlono Toliey, Bisotiy kabi shoirlar turk va fors tillarida ijod qilganlar. Sharq klassik adabiyoti tarjimalariga ham e'tibor berilgan.

Chunonchi XVI asrda Nizomiyning "Xusrav va Shirin", "Maxzanul asror" ("Sirlar xazinasi") dostonlari tarjima qilingan. Bu dostonlar xalqining adolat va ma'rifatga intilishlarini kuchaytirishga xizmat qilgan. Bu davrda "Chaxor manoli" kabi adabiyot nazariyasiga oid asarlar ham yaratilgan. Badiiy ijodning g'azal, ruboiy, tuyuq kabi turlari rivoj topgan. Alisher Navoiyning e'tirof etishicha, temuriylar davrida, ayniqsa turk tilidagi adabiyot taraqqiyotiga jiddiy e'tibor berilgan. Navoiy bilan birga ijod qilgan

Abdurahmon Jomiy g'oyat sermahsulli ijodkor bo'lib, undan bizga adabiyotning turli janrlariga fan va san'atning rang –barang sohalari o'z boy meros qolgan. Jomiy asarlari o'z davridayoq doirasidagina emas, boshqa mamlakatlarga ham keng tarqalgan. Uning asarlari o'z davrida va undan keyin ham ko'p qo'lyozma nusxalarda ko'chirilgan. Abdurahmon Jomiy Temuriylar davri ilm fani va adabiyotining faxri, Sharq she'riyatini yuksaklikka ko'targan so'z san'atkorlaridan biridir. U bir necha asrdiki, Navoiy bilan yonma-yon o'zbek shoir va adiblariga ham ustozlik qilib kelmoqda.

Bu davrda Monaunnahr va Xurosonda XV asrdagi Renessans ya'ni uyg'onish davri vakillaridan biri, Navoiyning shogirdi, "Sharq Rafayeli", ulug' musavvir va miniatyurasoz Kamolliddin Behzoddir. U musulmon sharqi xalqlari balki butun dunyo xalqlari san'ati tarixida sezirali iz qoldirgan, uning taraqqiyotiga o'zining barakali hissasini qo'shgan. Behzod miniatyura san'ati tarixida maxsus maktab "Behzod maktabi"ni yaratdi. Behzod miniatyuralari uning tirikligidayoq va ayniqsa undan so'ng musulmon sharqida va g'arbida ham bu san'atning eng oliy yutug'i deb tan olindi.

Amir Temurning ilmu-fan, ma'naviy-madaniyati haqida fikr yuritar ekanmiz, Sohibqironning o'zi ham fan bilan shug'ullangan, tarixni sevgan, tarix haqida kitoblar yozgan. Uning "Manzumoi Turk", "Temur Tuzuklari" shular jumlasidandir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, jahon xalqlari tarixini yaxshi bilgan, o'z faoliyati to'g'risida siyosiy xulosalar chiqargan. Shu bilan bir qatorda Amir Temur tabobat ilmining rivojiga katta sharoit yaratib beradi va xalq meditsinasini, tabobat ilmiy markazlari, binolarini vujudga keltiradi.

Mustaqillik buyuk tariximizni xolisona yoritishga, haqiqatni borligicha ochib berishga zamin yaratdi. Tarixda o'tgan buyuk shaxslar va ular yaratgan mislsiz ishlar asrlar osha avloddan avlodga o'tib boraveradi. Amir Temur va u yaratgan buyuk davlat, uning vorislari davridagi mislsiz ishlar biz yuqorida aytib o'tgan ishlarga misol bo'ladi. Sohibqiron o'z huzuriga o'sha davrning mashhur va mohir me'morlarini chaqirib, shaharlar hamda quriladigan inshootlarning loyihalarini chizishni buyuradi. Temur davrida Markaziy Osiyoda shaharsozlik, me'morchilik, san'ati, dinu-islom, madaniyat va ilmu-ma'rifat tengsiz rivoj topdi. O'rta Osiyo shaharsozligida bino va inshootlarni qurishda ansambl uslubi, yangidan-yangi jamoa binolari, usti berk savdo rastalari, maxsus bozorlar vujudga keldi, ilmu-fan markazlari tashkil etildi.

Me'morlar yaratgan loyihalarini Amir Temur o'zi har tomonlama o'rganib chiqib lozim bo'lgan o'zgarishlarni kiritadi. Loyihalar har tomonlama pishiq, puxta bo'lgach qurilish ishlari boshlangan. Shu bilan birga Movaraunnahr va Xuroson nafosat, ruhiy maishiy buyumlarda, tengi yo'q hashamatli, salohiyatli rang-barang bezakli binolarda o'z aksini topadi. Bu davrda tasviriy san'at- miniatyura san'ati va monumental rassomlikdan ham ko'tarilish yuz bergan. Bir talay miniatyura asarlari maydonga kelgan. Bizgacha yetib kelgan tasviriy san'at yodgorliklari Samarqand, Hirot va Buxoroda bu san'atning o'ziga xos uslublari shakllangani, hayotni haqqoniy tasvirlash tomon rivojlanib borganini ko'rsatadi. Bu davrda Pir Ahmad G'iyosiddin, Xo'ja Abdulxay, usto Shamsiddin, Do'st Muhammad, Shoh Muzaffar, Mavlono Shahobiddin, Bobonaqqosh kabi juda ko'plab musavvirlar ijod qilganlar. Tarixdan ma'lumki, G'arb va Sharq davlatchiligida notiqlik san'ati- so'z san'atiga jiddiy e'tibor berilgan. Samarqand va Hirotida notiqlik maktablari bo'lib, ularda Mavlono Ershod, Qozi Xishiy, Ibrohim Balxiy, Hotam asal ustozlik qilganlar. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Amir Temur ham tengi yo'q notiq

bo'lgan. Ibn-Arabshohning "Temur hayoti" asarida Temurning notiqqligiga katta baho bergan. Bir arab solnomasining guvohligiga asoslanib Barbara Brey esa o'zining "Ibn xoldun" sarlavhali maqolasida Temur nutq so'zlaganda "qarashlari o'tli, yoniq, ovozi yoqimli, jarangdordir" deb ko'rsatgan. Amir Temur avlodlari Shoxruh Mirzo, Ulug'bek, Zahriddin Muammad Bobur ham Sharq notiqqligining mashhur namayondalari bo'lganlar.

Amir Temur nafaqat Samarqandni, balki butun Movarounnahr, Xurosonni, temuriylar davlati tasarrufida bo'lgan, keyinchalik mamlakatga qo'shib olingan hamma hududlarni reja asosida orasta, ko'rkam, xushmanzara maskanlarga aylantiradi.

Shuningdek, jahon madaniyati va san'ati tarixida Temuriylar Renessansi davriga doimo yuksak baho berib kelinmoqda. Ana shu Renessans - Uyg'onish davrida Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod va boshqa zabardast fan va madaniyat allomalarimiz yetishganki, ular Movarounnahr va Xuroson ravnaqiga o'zlarining katta ulushlarini qo'shganlar. Temuriylar davri adabiyoti o'zbek adabiyoti rivojida o'ziga xos alohida bir bosqichni tashkil etadi. Undagi ulug'vor insonparvarlik va xalqchilik, adolatparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari hamon o'z tarovatini yo'qotgani yo'q. Bu adabiy meros O'zbekistonda hali asrlar davomida o'zining boy mazmuni bilan, g'oyaviy-mafkuraviy teranligi va ilohiyliigi bilan komil insonni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Temuriylar davrida yaratilgan adabiyot tasavvufning adabiyoti darajasini belgiladi. Adabiyot tasavvufning g'oyaviy mazmunida ilohiy masalalarni qamrab olib umuminsoniy tafakkurni ifodaladi.

Movarounnahr va Xurosonda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda ro'y bergan madaniy yuksaklik butun musulmon Sharqinagina emas, Ovropa mamlakatlarini hayratga soldi. Bu yuksaklik Markaziy Osiyoning so'nggi madaniy-ma'naviy rivojinagina belgilab bermay, qo'shni mamlakatlardagi madaniy taraqqiyotga ham katta turtki berdi. Movaunnahr madaniyati, ilm-fani, ayniqsa, Ulug'bek zamonida ham yana yuksak cho'qqilarga ko'tarildi. XV asrning yigirmanchi yillaridayoq, Ulug'bek Movaunnahr, O'rta va Yaqin Sharqda buyuk olimlar va madaniyat homiysi sifatida tanildi. Natijada ilm-fan bilan bir qatorda adabiyot, xattotlik, musavvirlik, musiqa va raqs san'ati yana taraqqiy topib, Samarqand na'fis san'at markaziga aylandi.

Xullas, hozirgi kunda Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati, san'ati, shaharsozligi jahon me'morchiligi tarixida eng yorqin sahifa ekanligini hisobga olib, bu davr madaniyatini o'rganish, xalqimiz qudratini yoshlar ongiga yetkazish dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Binobarin, Temur va Temuriylar davri san'atini keng miqyosda o'rganish, hozirgi zamon san'at taraqqiyotida uning boy an'alaridan foydalanish yo'llarini izlash san'atkorlar va san'atshunoslik fanining qadrli va e'zozli vazifalaridan bo'lib qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida mustaqil davlatimiz yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amir Temur Temuriylar davrida madaniyat va san'at. - T. Sharq, 1996.
2. Amir Temur Ko'ragan. Temur tuzuklari - T. Turon fanlar akademiyasi nashriyoti, 2014.
3. Ahadov Sh.A., Egamov Sh.S. Amir Temur va Temuriylar davrining intellektual salohiyati.

Samarqand, 2004.

4. Abdullayev N. «San'at tarixi». - Toshkent. «O'qituvchi» 1987.

5. Boboyev X.B. Amir Temur va temuriylar saltanati.-T.Kamalak, 1996.-200b.

6. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. -T. 1994

7. Usmonov A. Kamolliddin Behzod va uning noqqoshlik maktabi. T.:1977.

8. Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Соҳибқирон Амир Темур ва унинг салтанати. - Андижон, 1995.